

## HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RLARIDA TABIAT TASVIRI VA IJTIMOYIY KAYFIYAT UYG'UNLIGI

**Narzullayeva Sabina Qobil qizi,**

*O'zMU Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti*

*Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti yo'nalishi*

*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida tabiat obrazining funksional-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoiraning "Kuzgi daraxt" va "Kichik daraxt" she'rlari misolida daraxt obrazining ramziy-falsafiy ma'nolari, inson umri, ruhiy kechinmalar va ayol timsoli bilan bog'liqligi yoritiladi. Tahlil jarayonida tabiat tasvirlarining poetik va emotsional yuklamasi ilmiy asosda ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tabiat obrazlari, daraxt obrazi, poetika, ramz, ayol timsoli, ruhiy kechinma, falsafiy talqin.

**Annotation.** This article analyzes the functional and aesthetic features of nature imagery in the poetry of Halima Khudoyberdiyeva. Using the poems "Autumn Tree" and "Small Tree" as examples, the study explores the symbolic and philosophical meanings of the tree image and its connection with human life, inner emotional experiences, and the image of woman. The analysis reveals the poetic and emotional significance of nature descriptions on a scholarly basis.

**Keywords:** nature imagery, tree image, poetics, symbol, image of woman, emotional experience, philosophical interpretation.

**Аннотация.** В данной статье анализируются функционально-эстетические особенности образов природы в поэзии Халимы Худойбердиевой. На примере стихотворений «Осеннее дерево» и «Малое дерево» раскрываются символические-философские значения образа дерева, его связь с человеческой жизнью, духовными переживаниями и образом женщины. В процессе анализа поэтическая и эмоциональная нагрузка природных образов рассматривается на научной основе.

**Ключевые слова:** образы природы, образ дерева, поэтика, символ, образ женщины, духовные переживания, философское осмысление.

**Kirish.** Adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotida tabiat tasviri har doim muhim badiiy vositalardan biri bo'lib kelgan. Poeziyada tabiat manzaralari orqali nafaqat go'zallik, balki insoniyatning ruhiy olami, tarixiy xotira, ijtimoiy muhit va shaxsiy kechinmalar badiiy ifodasini topadi. Tabiat obrazlari aksariyat hollarda voqelikni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ramziy, metaforik shaklda ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan u she'riy nutqda ichki va tashqi holat, shaxs va jamiyat, ruhiyat va ijtimoiylik orasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlovchi kuchli estetik vositadir. Ayniqsa, shoir tabiatga nafaqat kuzatuvchi, balki hissiyot va fikrni anglatuvchi badiiy nutq elementi sifatida murojaat qilganida, manzara ortidan chuqur ijtimoiy va falsafiy qatlamlar yuzaga chiqadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida tabiat obrazlari ana shu funksional-estetik yondashuv bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Shoira tabiat tasvirlari orqali ayol qalbining eng nozik his-tuyg'ularini, insonning ruhiy holatini, shuningdek, davr va jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarni badiiy tahlil etadi.

**Adabiyotlar sharhi.** O'zbek zamonaviy poeziyasida tabiat tasviri badiiy tafakkurning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va

mustaqillik davri she'riyatida tabiat obrazlari orqali inson ruhiyati, jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyat, milliy qadriyatlar hamda ma'naviy jarayonlar ifodalangan. Bu jarayonda o'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva ijodi alohida o'rin tutadi. Uning she'rlarida tabiat tasviri nafaqat estetik vosita, balki jamiyat ruhiyatini ifodalovchi badiiy-falsafiy ramz sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli shoironing poetik merosini tadqiq etishda tabiat obrazlari va ijtimoiy kayfiyat uyg'unligini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida tabiat tasvirining poetik funksiyasi masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurov, Naim Karimov, Qozoqboy Yo'ldoshev kabi adabiyotshunoslar o'z tadqiqotlarida o'zbek she'riyatida tabiat manzaralari, ularning badiiy-estetik vazifasi hamda inson ruhiyati bilan bog'liqligini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar. Ushbu ilmiy ishlar tabiat obrazlarining poetik tizimdagi o'rni va funksiyasini tushunishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodini o'rganish borasida ham qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Adabiyotshunoslar shoironing lirikasida ayol ruhiyati, milliy tafakkur, ona tabiatga munosabat va ijtimoiy muammolar o'zaro uyg'un holda ifodalanganini ta'kidlaydilar. Xususan, tadqiqotlarda shoironing she'rlarida tabiat obrazlari orqali insonning ichki kechinmalari, millat taqdiri, erkinlik va vatanparvarlik tuyg'ulari badiiy ifodalanganligi qayd etiladi. Shoironing poetik olamida bahor, shamol, tog', daraxt, daryo kabi tabiat unsurlari ramziy ma'no kasb etib, ijtimoiy kayfiyatni ifodalovchi obrazlarga aylanadi.

**Natijalar.** Shu bilan birgalikda, tabiatga oid bo'lgan tasvirlar ramziy ma'no kasb etib, metaforalar ijodkorning badiiy mahoratini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, shoironing shunday ramziylik ostida lirik "men" ga daxldor bo'lgan xarakterlar ochib berilgan "Kichik daraxt" she'rini olaylik. Ushbu she'r Halima Xudoyberdiyevaning hayot falsafasi, ijtimoiy ong va shaxsiy kechinmalarining tabiat obrazlari orqali ochib berilgan poetik talqinidir.

Huv balandda barg yoyib turgan

Kichik daraxt, bilsang, o'sha – men.

Qushlar bilan so'z, suhbat qurgan

Kichik daraxt, bilsang, o'sha – men. [9:61]

She'rning dastlabki bandi syujetli emas, balki simbolik obraz bilan boshlanadi. Bunda ijodkor o'zini balandda joylashgan, qushlar bilan "suhbatlashuvchi", tabiatdagi oddiy, ammo tiriklikka daxldor bir unsur – daraxt bilan qiyoslashi orqali tashqi manzara va ichki dunyo uyg'unligini ochib beradi. "Kichik daraxt" – kamtar, ammo ruhan yuksak shaxs timsoli bo'lib, kichik" sifatlovchisi xokisorlikni, o'zini tabiatga yaqin tutgan shoironing ichki kechinmalarini bildiradi. Bu yerda tabiatning inson ruhiyati bilan uyg'unlashuvi yaqqol namoyon bo'ladi.

Boshi uzra quyosh to'ksa nur,

To'lqin ursa barglari – menman.

Qad tiklasa bo‘ronda bazur,  
Titrab tursa barglari – menman. [9:61]

She‘rning ushbu bandida inson tabiatining barqarorligi va sinovlarga bardoshlilik o‘z aksini topadi. Qorishiq poetik vositalar, ayniqsa metafora va personifikatsiya orqali lirik “men” o‘zini daraxt barglariga qiyoslaydi. Quyosh – umid, yorug‘lik manbai sifatida bo‘lsa, bo‘ron va to‘lqinlar – hayot sinovlarining timsoli bo‘lib xizmat qiladi. “Titrab tursa barglari – menman” misrasi insonning sinovlar oldida titragan, lekin baribir bardosh ko‘rsatgan holatini tasvirlaydi. Poetik struktura orqali shoiraning ayolona matonati va ichki kuchi yetuk falsafiy ohangda berilgan.

Kichikman-u, quvman salgina  
Novdalarim chayir ham yirik.

Titrab-titrab men beholgina  
To‘fonlardan chiqqanman tirik. [9:61]

Shoira o‘zining “kichik” va “quv” (zaif) ekanini ta‘kidlasa-da, novdalari “chayir” va “yirik” ekanligini bildiradi, “novda” esa o‘svuchanlik, yangilanish ramzidir. Bu kontrast – ayoldagi tashqi noziklik, ichki kuch va bardoshlilik- o‘zgacha bir zidlanishni vujudga keltiradi, go‘yo ushbu bir-biriga qarama-qarshi xislatlar aynan ayolgagina xos. “Titrab-titrab beholgina, to‘fonlardan chiqqanman tirik” misrasi shoiraning hayotdagi og‘ir sinovlar orqali mustahkamlanishini, ruhiy jasoratini ifodalaydi. Bu band she‘rda insoniy qarshilik, matonat va tiriklik ruhini badiiy ifodalashdagi yetuk namunadir.

Chayir tanim o‘rgangan ancha,  
Quyosh yoqmas, muzlatmaydi qor.  
Xush qomatim adl tutgan  
Har yangi tong ochaman ruxsor. [9:61]

Oxirgi bandga kelib, shoiraning ruhiy “tanasi”, ya‘ni ichki mohiyati – sinovlarga moslashganini ko‘ramiz. “Chayir tan” – jismoniy bardoshlilikni anglatgan holda, ruhan ham kuchli bo‘lishni bildiradi. Qor va quyosh – haroratdagi keskin farqlarning ifodasi sifatida, insonning har xil holatlarga chidamli ekanini ko‘rsatadi. “Har yangi tong ochaman ruxsor” degan jumla esa, har kuni umid bilan yashash, yangi tonglarni quvonch bilan kutib olish g‘oyasini anglatadi. Bu band poetik jihatdan ham, ruhiy-falsafiy jihatdan ham lirik qahramonning hayotga bo‘lgan dadil munosabatini kuchli obrazlar vositasida yoritadi.

Umuman olganda, she‘rda tabiiy obrazlar – daraxt, quyosh, barg, bo‘ron, qor – insoniy fazilatlar, sinovlar, bardoshlilik va umid timsoli sifatida xizmat qiladi, shu bilan bir qatorda, tabiat tasviri orqali ijtimoiy-ruhiy holatlar nozik poetik uslubda ochib beriladi. Bu asarda poetika, obrazlilik va emotsional yuklama yuqori darajada uyg‘unlashgan bo‘lib, shoira badiiy tafakkurining yetuk namunasi ifodalaydi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodining yana ko‘p o‘rinlarida daraxt obrazi uchraydi. Ularda daraxt, asosan, bardosh, chidam, inson umri kabi umumiy ma‘no ifodalagan. Masalan, “Kuzgi daraxt” she‘ri “Issiq qor” to‘plamiga kiritilgan bo‘lib, u inson umrining

kuz fasliga, ya'ni hayotning so'nggi pallasiga tashbeh etilgan poetik tasvirdir. Shoira daraxt timsolida o'zini, insonni, insoniyatni, keng ma'noda esa ayol timsolini gavdalandiradi. Bu yerda kuz – so'nish, biroq baraka, hushyorlik va ichki go'zallik mavsumi sifatida talqin etiladi.

Butoq, yaprog'ida kuz tafti,  
Shovullab turibdi bir daraxt.  
Xazonlar tanasin o'rabdi,  
Lovullab turib bir daraxt. [9:167]

Ushbu bandda muallif kuz manzarasi orqali daraxtning timsolida insoniy mavjudot qiyofasini tasvirlaydi. "Butoq, yaprog'ida kuz tafti" degan misrada tabiat va vaqt uyg'unligi yaqqol ko'rinadi. "Kuz tafti" iborasi mavsum o'zgarishini anglatishdan tashqari, qarish, toliqish va hayotda boshlangan yangi bosqichni metafora vositasida ifodalaydi. "Shovullab turibdi bir daraxt" satri esa personifikatsiya orqali jonlanishni ko'rsatadi, bunda daraxt inson kabi nafas olayotgandek, hayotiy bo'lib chiqadi.

Bo'ronlar bukolmay shoxlarin –  
Bag'rida sayratdi qumrini.  
Eshitgan yo'q uning ohlarin –  
Oh tortmay o'tkazdi umrini.[9:167]

Bu bandda daraxt o'z boshidan o'tkazgan tabiiy sinovlar – bo'ronlar, kuchli shamollar orqali inson hayotining mushkul lahzalari bilan qiyoslanadi. Daraxt "bukolmay shoxlarin" degan satr bilan matonat, sabr va qarshilik timsoliga aylanadi. Ayniqsa "Oh tortmay o'tkazdi umrini" satrida jonli mavjudotga xos harakatsizlik, o'zini himoya qilmaslik, lekin barcha sinovlarni boshdan kechirish motivi ko'tariladi.

Hali ham ketgan yo'q madori,  
Hali soz sozlarga o'xshaydir.  
Bahordan yosh edi bahori –  
Kuzi ham yozlarga o'xshaydir. [9:167]

Bu bandda metaforik qarama-qarshiliklar orqali vaqt va holat tahlil qilinadi. "Bahordan yosh edi bahori" misrasida insonning yoki daraxtning (simvolik obraz sifatida) hayotdagi eng porloq, ijodiy yoki zavqli davri – yoshlik, kuchli davri eslatiladi. Shoira kuz faslini esa ezgulik, quvnoqlik emas, ichki sog'inch, xotirjamlik, ehtimol, iztirob manbai sifatida ko'rsatadi.

Tun bo'yi, umr bo'yi o'chirib,  
Yozib topay ulkan baxtni,  
O'tqazay umrimga ko'chirib  
Lovullab turgan shu daraxtni. [9:167]

She'r yakunida daraxt yana bir bor markazga olib chiqiladi va u ideal timsolga aylanadi. Daraxt endi shunchaki tabiat timsoli emas, balki umr yo'lidagi g'oya, orzu,

hayotiy idealga ko‘chadi. “Lovullab turgan daraxt” – bu hayotiy ishtiyoq, vijdon, ruhiy yuksaklikdir.

Halima Xudoyberdiyevaning “Kichik daraxt” she’rida ham daraxt obraziga insoniylik baxsh etiladi, ammo unda o‘zini anglash, ijtimoiy o‘rni va ruhiy bardoshlik asosiy g‘oya bo‘lib xizmat qiladi. “Kuzgi daraxt” esa vaqt, fasl, ruhiy kechinmalar va o‘tkinchi hayot falsafasi bilan boyitilgan. **“Kichik daraxt”** – bu o‘zlikni anglash, barqarorlik va hayotiy kuch timsoli. **“Kuzgi daraxt”** – bu vaqt o‘tishi, ruhiy charchoq, lekin bardosh va orzu umidi bilan to‘la falsafiy qarashlar majmuidir.

**Xulosa.** Xulosa qilinganda, Halima Xudoyberdiyeva simvolik obrazlar orqali tabiatdagi kichik unsurlardan hech kimda uchramaydigan ijod na‘munasini yaratgan shoira hisoblanadi. Shoira she’riyatida tabiat obrazlari chuqur falsafiy va estetik mazmun kasb etib, inson ruhiyati, ayniqsa ayol qalbining kechinmalarini ifodalashda muhim badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Daraxt, fasllar va boshqa tabiiy unsurlar orqali shoira hayotning o‘tkinchiligi, bardoshlilik, umid va ruhiy yetuklik masalalarini ramziy ifodalaydi. Ushbu obrazlar poetik tafakkur, obrazlilik va emotsional ta’sir uyg‘unligi orqali yuksak badiiy darajaga ko‘tarilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 556 б.
3. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.
4. Жабборов Н. Замон, меъзон, шеърят. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015. – 304 б.
5. Худойберdiyeva Н. Бу кунларга yetganlar bor. – Toshkent, 1993. – 305 b.
6. Худойберdiyeva Х. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 750 б.
7. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – 486 б.
8. Hamidova M. Halima Xudoyberdiyeva lirikasining badiiy xususiyatlari. – Toshkent, 2004. – 145 б.
9. Худойберdiyeva Н. Buyuk qushlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 728 б.
10. Йўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеърятининг асосий хусусиятлари. – Тошкент, 2004. – 155 б.
11. Саримсоқов Б. Ўзбек шеър системалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1988. № 4 – 38 б.